«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligi v.b. direktori
__________ T.E. Uljayev
2020 yil «01» 06

# DAVLAT XIZMATI REGLAMENTI
(O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligi)

## 1. Xizmat tavsifi (pasport)

### 1.1. Xizmat nomi

Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish

### 1.2. Xizmat natijasi

Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish

Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 martdagi 58-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”da (O’zR AQ-45) o‘rnatilgan.

### 1.3. Xizmatni ko‘rsatuvchi organlar va blankalar olish manzili

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (“O‘zaviatsiya” agentligi), Havo kemalarining uchishga yaroqliligi bo‘limi (HKUYaB), “O‘zaviatsiya” agentlikning rasmiy veb-sayti www.uzcaa.uz

### 1.4. Huquqiy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 39-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 1 martdagi 58-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi” (O’zR AQ-45).

### 1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma olish uchun ariza bilam murojat qilgan fuqaro havo kemasining ekspluatanti (egasi/mulkdori) bo‘lishi mumkin.

### 1.6. So‘rov berish muddati

O‘rnatilmagan

### 1.7. So‘rov berish muddatlariga rioya etmaslik oqibatlari ko‘rsatilsin

Taalluqli emas

### 1.8. Ijro muddati

| |
|---|
| “Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”ga muvofiq arizani ko‘rib chiqish muddati 10 (o'n) ish kun ichida o‘rnatilgan. |

### 1.9. Ariza qabul qilinganligini tasdiqlash muddati

| |
|---|
| Taalluqli emas |

## 2. Xizmatdan foydalanuvchilariga ma’lumotlarni taqdim etish

### 2.1. Ma’lumotlarning tarkibi va hajmi

| |
|---|
| Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risida ma’lumotlarni murojaat qilgan har qanday shaxsga taqdim etish, shu jumladan “O‘zaviatsiya” agentlikning rasmiy veb-saytidan www.uzcaa.uz zarur bo‘lgan hujjatlarni yuklab olish imkoniyati bilan. |

### 2.2. Ma’lumotlarni keng taqdim etish

| |
|---|
| Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etishi “O‘zaviatsiya” agentlikning rasmiy veb-saytidan www.uzcaa.uz amalga oshiriladi. |

### 2.3. So’rovga asosan beriladigan ma’lumotlar

| |
|---|
| Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risida ma’lumotlarni og’zaki ravishda 9-00 dan 18-00 gacha taqdim etishi: 78-120-00-62 yoki 78-120-00-63 sonli telefon raqamlari orqali;<br>Yozma ravishdagi so’rovnomalarni kecha-kunduz 71-254-14-82 sonli faks raqami orqali qabul qilish, yozma ravishdagi so’rovnomalarni 9-00 dan 18-00 gacha “O‘zaviatsiya” agentlikning devonxonasi orqali qabul qilish va berish;<br>Yozma ravishdagi so’rovnomalarni kecha-kunduz qabul qilish: caa@uzcaa.uz yoki technique@uzcaa.uz elektron pochtasi orqali. |

### 2.4. Xizmatni ko‘rsatuvchining manzilida ma’lumotlarni taqdim etish

| |
|---|
| “O‘zaviatsiya” agentlikning manzili: 100015, Toshkent shahri, Nukus ko‘chasi 73-b.<br>Mo‘ljal – Mirobod bozori ro‘parasida. |

### 2.5. Foydalaniladigan xujjatlar blankalari (shakllari)

| |
|---|
| Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma va arizaning blankalari “Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”da belgilangan. |

## 3. Xizmat ko’rsatish

### 3.1. Ish vaqti

| |
|---|
| “O‘zaviatsiya” agentlikning ish vaqti - har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha, shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari. |

### 3.2. Kutish shartlari

| |
|---|
| Taalluqli emas |

## 4. Xizmat koʻrsatish jarayoni

### 4.1. Zarur boʻlgan xujjatlar

a) “Fuqaro havo kemasini roʻyxatdan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida Guvohnoma berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomi”ga 3-ilovasiga muvofiq fuqaro havo kemasini davlat reestriga roʻyxatdan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida guvohnomani berish yoki qayta rasmiylashtirish yoki uning dublikatni berish yoki havo kemasini davlat reestridan chiqarish toʻgʻrisida ariza;

b) havo kemasi horij davlat reestridan chiqarilganini tasdiqlovchi hujjat, agar havo kemasini davlat reestriga roʻyxatidan oʻtkazish va havo kemasini roʻyxatdan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida guvohnomani berish toʻgʻrisida arizani berishdan oldin arz qiladigan havo kemasi boshqa davlat reestriga roʻyxatidan oʻtkazilgan edi.

### 4.2. Pullik xizmatlar

| |
|---|
| Xizmat bepul |

### 4.3. Davlat xizmati koʻrsatish bosqichlari

“Fuqaro havo kemalarini davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida Guvohnoma berish tartibi togʻrisidagi Nizom»da qoyidagi bosqichlar belgilangan:

- arizani qabul qilish va uni roʻyxatdan oʻtkazish;
- ariza va xujjatlarni qoʻrib chikish fuqaro havo kemasini texnik holatini tekshirishi bilan birga;
- arizachidan havo kemasinining texnik holatini tekshirishda aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilganligi toʻgrisida xujjatlarni qabul qilib;
- fuqaro havo kemasini davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi Guvohnomani berishni yoki berishni rad etish.

### 4.4. Davlat xizmati koʻrsatishning ichki idoraviy jarayonlari

“Oʻzaviatsiya” agentlikning devonxonasi orqali arizani qabul qilish – “Oʻzaviatsiya” agentligi direktori imzosini qoʻyish uchun arizani berish – “Oʻzaviatsiya” agentlikning HKUYaB arizani berish – “Fuqaro havo kemasini roʻyxatdan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida Guvohnoma berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomi”ga muvofiq arizani qoʻrib chikish – arizachiga guvohnomani berishni yoki berishni rad etish toʻgʻrisida yozma ravishda xabardor qilish.

### 4.5. Rad etish asoslari

Arizachiga quyidagi holatlarda fuqaro havo kemasini davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida Guvohnomani berishni rad etilishi mumkin:

a) agar arizada koʻrsatilgan maʼlumotlar Nizom talablariga javob bermasa yoki notoʻgʻri yoki ishonchsiz maʼlumotlar mavjud boʻlsa yoki zarur boʻlgan xujjatlarning butun toʻplami arizaga ilova qilinmagan boʻlsa;

b) agar Arizachi ruxsat etuvchi talablar va shartlarga muvofiq boʻlmasa;

d) agar havo kemasinining haqiqiy texnik holati boʻyicha aniqlangan va asoslangan salbiy xulosa berilgan boʻlsa, kelajakda undan foydalanishidan imkonini bermaydigan boʻlsa.

## 5. Sifatni ta’minlash

### 5.1. Sifatning parametrlari

| |
|---|
| Xizmatdan foydalanuvchilarining keng doirasi uchun Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish bo‘yicha xizmat ommaviy hisoblanmaydi. |

### 5.2. Sifatsiz ko‘rsatilgan xizmatdan shikoyat qilish

| |
|---|
| Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xizmatdan foydalanuvchi Guvohnomani berishni rad etilish to‘g‘risidagi xabarnomasi, shuningdek «O‘zaviasiya» Agentlikning mansabdor shaxsining xatti-harakatlari (xarakatsizligi) yuzasidan qo‘ydagilar orqali shikoyat qilishi mumkin.<br>- shaxsiy murojaat;<br>- yozma ravishda;<br>- elektron pochta. |

Reglamentga Ilova

## Davlat xizmatini ko’rsatish sxemasi
## (Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish)

**Arizachi**
**“O‘zaviatsiya” agentlikning www.uzcaa.uz rasmiy veb-saytiga kirish**

↓

**Arizachi**
**“Bosh sahifa - Normativ-huquqiy aktlar - O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviaciyasi normativ-xuquqiy aktlar – 2- bo‘lim- O‘zR AQ-45”ga kirish Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomi bilan tanishish**

↓

**Arizachi**
**“Bosh sahifa - Faoliyat – Arizalar va blanklar”ga kirish.**
**Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnomani berish yoki qayta rasmiylashtirish yoki uning dublikatni berish yoki havo kemasini davlat reestridan chiqarish to‘g‘risida Ariza blankini yuklash, arizani rasmiylashtirish, Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga (АП РУз-45) muvofiq asoslovchi xujjatlarning butun to‘plami arizaga ilova qilish**

↓

**Arizachi**
**Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq asoslovchi xujjatlarning butun to‘plami bilan birga arizani elektron shaklda berish**

↓

**“O‘zaviatsiya” agentligi**
**devonxonasida arizani qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

↓

**“O‘zaviatsiya” agentligi**
**Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga (АП РУз-45) muvofiq asoslovchi xujjatlar bilan birga arizani qo‘rib chikish**

↓

**“O‘zaviatsiya” agentligi**
**Fuqaro havo kemasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Guvohnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq havo kemasining texnik holatini tekshirish va tekshirish natijalari bo‘yicha dalolatnoma tuzish**

↓

**“O‘zaviatsiya” agentligi**
**Guvohnoma berishni rad etish to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilish yoki guvohnomani rasmiylashtirish va veb-saytiga joylashtirish.**